IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: EC49415639

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

# OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIMDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH METODIKASI O‘QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 | - | Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110 000 | - | Ta’lim |
| Magistratura mutaxassisligi: | 70111101 | - | Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) |

**Qo’qon – 2025**

| Fan/modul kodi<br>OPTMFO'MM 1105 | O‘quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>1 | ECTS -kreditlar<br>5 |
|---|---|---|---|
| **Fan/ modul turi<br>majburiy** | **Ta’lim tili<br>O‘zbek** | | **Haftadagi dars soatlari<br>4** |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya soatlari | Kurs ishi | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|
| | **Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi** | **60** | **30** | **60** | **150** |

2.

I. **Fanning mazmuni.**

Fanni o‘qitishdan maqsad – “Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishning asosiy maqsadi magistrantlarga fanlar, ularni o‘rganish va o‘qitish muammolari bo‘yicha nazariy va amaliy, tajribaviy izlanishlarni rejalashtira olishni, maxsus adabiyot, meyoriy hujjatlarni o‘rganib, xulosa va tahlil qila bilishni o‘rgatishdan iborat.

**Fanning asosiy vazifalari:**

- magistrantlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish;
- ularda nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qila olish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
- bo‘lajak magistrlardagi jahon ilmiy axborotlari (jumladan INTERNET tizimi) dan foydalanish, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olish, ilmiy izlanishda echimlari eng qulay va sodda variantlarni topa bilish va amalga joriy etish qobiliyatini rivojlantirish;
- ularga axborot xurujlari, ma’naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda mutaxassislik fanlari yutuqlariga tayanish, ularning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish metodlari, usul va vositalarini o‘rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-MODUL. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanini oldidagi vazifalar**

**1-mavzu: Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining vazifalari, o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari**

“Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” fanining tadqiqot doirasi. Tadqiqot tamoyillari va metodlari. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasining asosiy ko‘rinishlari, sohalari va tarkibiy tuzilishlari. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish tamoyillari. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro

aloqasi. Talaba yoshlarda ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishda “Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” fanining o‘rni va roli. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tabiq etishning dolzarb masalalari

**2-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonining tuzilishi**

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning shakllari va tuzilishi. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllari: ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta’lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, o‘quv amaliyoti, malakaviy ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish metodikasining ilmiy asoslari.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllarining o‘zaro aloqadorligi, umumiy va o‘ziga xos farqli jihatlari. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonini tashkil etishda o‘qitish shakllarini hisobga olishning ahamiyati.

**3-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o‘qitish bo’yicha Davlat ta’lim standartlari.**

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo‘nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrninig tayyorgarlik darajasiga qoyiladigan talablar. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuziladigan namunaviy va ishchi o‘quv rejalar.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi.

**II-MODUL. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi**

**4-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” faning o‘qitilishi**

“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining obekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarida yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash masalalari. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining shakllanishi, obekti va predmeti. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” obekti xalqimizning tarixiy, milliy –ma’naviy merosi, qadriyatlari, maqsad va mo‘ljallari, demokratik prinsiplarini namoyon bo‘lishining umumiy va milliy xususiyatlarini o‘rganish.

Jamiyat tarixiy taraqqiyotida g‘oyalarning namoyon bo‘lish xususiyatlari. G‘oyalar tipologiyasi. Milliy g‘oyaning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni. O‘zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g‘oya konsepsiyasi bilan bog‘liqligi. Miliy g‘oyada siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tamoyili. Milliy g‘oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari.

“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursini o‘rganishning ahamiyati. Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida diniy bag‘rikenglikni asrash masalalarining yoritilishi. Vijdon va e’tiqod erkinligining huquqiy asoslari.

| | |
|---|---|
| | **5-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Ijtimoiy hayot va din" kursining o'qitilishi**<br>Tabiat, inson, jamiyat tushunchalari. Jamiyat hayoti sohalari. Jamiyat hayoti sohalariga doir diniy va ilmiy qarashlar. Ijtmoiy munosabatlarning vujudga kelishi. Jamiyat hayoti sohalari rivojida diniy ongning tutgan o'rni. Din va ijtimoiy ong. Diniy faoliyat tushunchasi. Jamiyat rivojining dastlabki davrlaridagi diniy tasavvurlar. Jamiyat tarixiy taraqqiyotida din muayyan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-axloqiy vazifalarni bajarishi. Din funksiyalarining falsafiy tahlili.<br>Din tushunchasi. Dinga berilgan turli ta'riflar. Tarixiy jarayonda dinning ijtimoiy hodisa sifatida shakllanganligi. Dinning kelib chiqishi haqidagi turli qarashlar. Dinlar kelib chiqishining ijtimoiy-tarixiy asoslari. Dinning ijtimoiy, psixorlogik ildizlari. Dinlar tasnifi. Jamiyat hayotidagi dastlabki diniy tasavvurlar. Ibtidoiy din shakllari. Dinlarning kelib chiqishini falsafiy va sotsiologik talqini. Milliy dinlarning o'ziga xosliligi. Milliy din ko'rinishlari va ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati<br><br>**6-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Dinshunoslik" kursining o'qitilishi**<br>Terrorizm tushunchasi va mohiyati. Ekstremizm tushunchasi va mohiyati. Ekstremistik va terroristik harakatlarning vujudga kelish tarixi va asosiy davrlari. Missionerlik tushunchasi, mazmun va mohiyati. Missionerlik harakatlarining vujudga kelish tarixi. Xalqaro terrorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari. Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati.<br>Xalqaro ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'rifat bilan kurashishni sifat jihatidan yangni bosqichga ko'tarish borasidagi vazifalar. Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish masalalari. Xalqaro ekstremizm va terrorizmga qarshi ma'rifat bilan kurashishda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar.<br><br>**7-mavzu: Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Globallashuv asoslari" fanining o'qitilishi**<br>"Globallashuv asoslari" fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari<br>Globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri va uning oqibatlarini yoritish. Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari. Siyosiy jarayonlarning globallashuvi. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi va milliy manfaatlar. Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati. Globallashuv va axborot texnologiyalari. Dinlararo munosabatlarning globallashuvi. Fan va ta'limning globallashuvi sharoitida g'oyaviy tarbiya masalalari. Sportning globallashuvi. Jinoyatning globallashuvi. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o'zlikni anglash masalalaritahlili. Ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlari. Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish vazifalari haqida bilim berish. |

| | |
|---|---|
| | **8-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Geosiyosat asoslari” faning o‘qitilishi**<br>“Geosiyosat asoslari” fanining predmeti, obekti, maqsad va vazifalari. “Geosiyosat asoslari” ning kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funksiyalari. Mumtoz geosiyosatning asosiy g‘oyalari va tamoyillari. Rossiyadagi geosiyosiy oqimlar va maktablari faoliyati tahlili. Yangi davr geosiyosiy nazariyalari va maktablari. Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiyosiy bilimlar va harakatlar. XVI-XIX asrlarda vujudga kelgan geosiyosiy bilimlar va harakatlar. “Katta o‘yin” konsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati. Yangi ming yillikda g‘arbiy yevropadagi siyosiy jarayonlar. Geosiyosiy munosabatlar tizimida aqshning roli. Yangi ming yillikda markaziy osiyoda xavfsizlikni ta’minlash vazifalari. “Yangi katta o‘yin” konsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati. O‘zbekiston va ShHT geosiyosiy istiqbollarini yoritishga doir zamonaviy yondashuvlar.<br>**9-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ma’naviyatshunoslik” fanining o‘qitilishi**<br>“Ma’naviyatshunoslik” fanning maqsadi va vazifalari. Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar. Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi<br>Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Ma’naviyat tushunchasining mazmuni va mohiyati. Ma’naviy yuksalish mexanizmlari. Jamiyat va ma’naviyat. Madaniyat morfologiyasi. Milliy madaniyatlar. Ijtimoiy madaniyat. Madaniy faoliyat turlari. Ijod madaniyatni harakatlantiruvchi kuch. Ma’naviyatshunoslik va uning axloqiy ildizlari. Ma’naviyatshunoslikda axloqiy tushuncha va tamoyillarning namoyon bo‘lishi. Ma’naviy madaniyat va estetik tarbiya mutanosibligi. O‘zbekistonning intellektual salohiyati va uning yangi jamiyat qurishdagi roli. Ma’naviy kamolot va ta’lim jarayoni axborotlashuvining o‘zaro ta’siri. Taraqqiyot strategiyasida ma’naviy yangilanish masalalari.<br><br>**10-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Etnomadaniyat” fanining o‘qitilishi**<br>Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo‘lib kelganligi. O‘tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari eng qadimiy poleolit davriga borib taqalishi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlarining yarim million yil doirasidagi tarixi, madaniyati, rasm-rusm hamda urf-odatlarini o‘rganish bilan bog‘liq dolzarb vazifalar. Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. Qadimgi odamlarning manzilgohlari, qadimgi shaharlar, qal’alar va ularning xarobalari, sug‘orish inshoatlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, zeb-ziynatlar, tangalar, qoyatosh sur’atlari, petrogliflar, yozma hujjatlar –tarixiy manbalar sifatida.<br>Markaziy Osiyo zaminida dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan an’analar, marosim-bayramlar. |

| | |
|---|---|
| | Eng qadimiy davrlardan boshlab termachilik, ovchilik, chorvachilik, deqqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga shakllana boshlagan o‘yin-raqslar.<br>**11-mavzu: Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Jahon siyosiy-mafkuraviy ta’limtlar tarixi” fanining o‘qitilishi**<br>Yaqin va O‘rta Sharqda quldorlik davlatlari va feodal munosabatlari. Sharq despotiyasi xususiyatlari. Eronda zardushtiylikning hukmron mafkuraga aylanishi. Zardushtiylikda ijtimoiy-siyosiy muammolar. Moniy ta’limotining ijtimoiy mohiyati. Mazdakiylar mafkurasi. Vizantiyada xristian dinining hukmron mafkuraga aylanishi. Imperiya doktrinasi, vizantizm xususiyatlari. Feodalizm ideologiyalari. Yeretiklar mafkurasi.<br>Islom mafkurasi va uning g‘oyalari. Arab halifaligi ekspansiyasi, islom mafkurasining mustahkamlanishi. Islomda insonparvarlik g‘oyalari, gumanistik qadriyatlar va demokratik unsurlar. Qur’oni Karim va Hadislarda hokimiyat masalalari. Rasmiy islom va halifalik hokimiyati. Sunniylik va shialik, xorijiylar, islomiylar, Qarmatlar mafkurasi. Al-Ma’ariy halifalik xususida. «Sof birodarlar» mafkurasi. Tasavvufning mafkuraviy funksiyasi. Nizom ul-mulkning «Siyosatnoma» asarining g‘oyaviy-siyosiy mazmuni. Ispaniya va Mag‘ribda siyosiy fikr. Ibn Tufayl roman-utopiyasida siyosiy masalalar. Ibn Rushd qarashlari. Ibn Haldun gumanizmi.<br><br>**II-MODUL. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitishning tashkiliy jihatlari**<br>**12-mavzu: Mutaxassislik fanlaridan o‘quv amaliyotini tashkil etish**<br>Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda nazariya va amaliyot birligi. O‘quv amaliyotini tashkil etish maqsadi va vazifalari. O‘quv amaliyotini tashkil etish shakllari. O‘quv jarayonining meyoriy hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish. Mutaxassislik fanlari bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishida ma’ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarining o‘tkazilishini kuzatish va tahlil qilish. Ta’lim muassasasi va talabalar turar joylarida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rejalari bilan tanishish, tahlil qilish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida ishtirok etish.<br>O‘quv amaliyotini tashkil etishning mutaxassislik fanlarini o‘rganishdagi ahamiyati. O‘quv-ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish va tashkil etish.<br>**13-mavzu: Mutaxassislik fanlarining didaktik ta’minotini ishlab chiqish va mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash**<br>Mutaxassislik fanlarining didaktik ta’minoti tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Didaktika – ta’lim va o‘qitish nazariyasi ekanligi. Didaktikaning maqsad – vazifalari va asosiy tushunchalari. Didaktikaning asosiy tushunchalari: ta’lim, ta’lim jarayoni, ta’lim tamoyillari, ta’lim metodlari, ta’lim shakllari, ta’lim vositalari, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘qitish, o‘qish va hk. Mutaxassislik fanlarining didaktik ta’minotini ishlab chiqish va unga qo‘yiladigan talablar.<br>Mutaxassislik fanlarining didaktik ta’minotini ishlab chiqishda professor o‘qituvchining mas’uliyati. Mashg‘ulot ishlanmalari, uning tarkibiy tuzilishi. |

| | |
|---|---|
| | O‘quv uslubiy majmualarning tuzilishi va unga qo‘yiladigan talablar. O‘quv uslubiy majmualarning tuzilishi: fan dasturi, ishchi o‘quv dastur, ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyalari, ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi, ma’ruza rejasi, mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar, tarqatma materiallar, slaydlar, o‘quv topshiriqlari, talabalar bilimini mustahkamlash uchun savollar, mavzuning qisqacha ma’ruzasi bayoni.<br>**14-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari**<br>Axborotlashgan jamiyatda yoshlarni yot va zararli g‘oyalar ko‘rinishlaridan himoyalashda mutaxassislik fanlarini zamon talabi asosida o‘qitishning o‘rni va ahamiyati. Axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va yoshlarga turli xil ta’siri. Dars jarayonida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish. Axborot xurujlari, ma’naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda mutaxassislik fanlari yutuqlariga tayanish, uning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish.<br>**15-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish**<br>Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamon talablari va o‘zgarishlarni hisobga olish zarurligi. Axborot sohasidagi yangilanishlar va yangi texnologiyalar. Axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish orqali mutaxassislik fanlarini o‘qitishni yanada takomillashtirish. Multimedia dasturlarining shakllanishi, ularga qo‘yiladigan talablar. Multimedia dasturlarining tuzilishi va uning rang-barangligi.<br><br>**III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>**Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**<br>1. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining vazifalari, o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari<br>2. Mutaxassislik fanlari ta’lim mazmunini tanlash mezonlari<br>3. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonining tuzilishi<br>4. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning tashkiliy shakllari<br>5. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” faning o‘qitilishi.<br>6. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursining o‘qitilishi.<br>7. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Globallashuv asoslari” fanining o‘qitilishi.<br>8. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Geosiyosat asoslari” faning o‘qitilishi.<br>9. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ma’naviyatshunoslik” fanining o‘qitilishi.<br>10. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Etnomadaniyat” fanining o‘qitilishi.<br>11. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Jahon siyosiy-mafkuraviy ta’limtlar tarixi” fanining o‘qitilishi. |

| | |
|---|---|
| | **12.** Pedagogik oliy ta'lim muasasalarida "Tarbiya va huquq fanlarini oʻqitish metodikasi" fanining oʻqitilishi.<br>13. Mutaxassislik fanlaridan oʻquv amaliyotini tashkil etish<br>14. Mutaxassislik fan oʻqituvchisining oʻquv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasi<br>15. Mutaxassislik fanlarini oʻqitish jarayonida professor-oʻqituvchining vazifalari va talabalarning oʻquv-bilish faoliyatini tashkil etish<br><br>Amaliy mashgʻulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-oʻqituvchi tomonidan oʻtkazilishi zarur. Mashgʻulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida oʻtilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qoʻllanilishi maqsadga muvofiq.<br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**<br>**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**<br>- esse – dolzarb mavzu boʻyicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;<br>- dokladlar tayyorlash;<br>- kurs ishi yozish;<br>- konspekt yozish;<br>- glossariy tuzish;<br>- individual va guruhiy oʻquv loyihasi;<br>- keys-topshiriqlarini bajarish;<br>- mavzuli portfoliolar tuzish;<br>- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;<br>- manbaalar bilan ishlash;<br>- infografika tuzish;<br>- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;<br>- multimediali taqdimotlar yaratish;<br>- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;<br>- darsdan tashqari mashgʻulotlar ishlanmalarini tayyorlash;<br>ta'lim yoʻnalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.<br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**<br>1. Oʻzbekiston Respublikasi «Ta'lim toʻgʻrisida»gi Qonuni va Oliy ta'lim tizimida mutaxassislik fanlarni oʻqitishda oʻtkazilayotgan islohatlar, muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.<br>2. "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini oʻqitish metodikasi" fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiqot tamoyillari va metodlari.<br>3. "Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini oʻqitish metodikasi" fanini oʻqitilishida barcha ijtimoiy gumanitar fanlarning aloqadorligi va ilmiy ahamiyati.<br>4. Ma'naviy dunyodarashning shakllantirishda "Mutaxassislik fanlarini oʻqitish metodikasi" fanining oʻrni va roli. |

5. Mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirishda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi orqali o‘zlashtirish jarayoni.
6. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo‘nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrninig tayyorgarlik darajasiga qoyiladigan talablar.
7. Darsning texnologik xaritasini tuzish hamda an’anaviy va noan’anaviy tarzdagi dars ishlanmalarini ishlab chiqish borasida magistrant talabalarda dastlabki ko‘nikma va tasavvurlarni hosil qilish.
8. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy – siyosiy islohotlar.
9. Inson va jamiyat, Inson va Vatan, Inson va millat tushunchalari, munosabatlarining mazmunan farqi.
10. Shaxs ma’naviyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillardan foydalanishning samarali usullari.
11. Ma’naviyatga doir yaratilgan o‘quv qo‘llanmalarning tanqidiy tahlili.
12. Bugungi kundagi ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi eng jiddiy muammolar va ularni hal etish usullari.
13. “Milliy g‘oya nazariyasi va tarixi” fanni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar.
14. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, vositalari, dars va uning turlari va tuzilishi.
15. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi” kursini o‘qitish metodikasi fanini o‘qitishdan maqsadlar.
16. Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining vazifalari, o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari
17. Mutaxassislik fanlari ta’lim mazmunini tanlash mezonlari
18. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonining tuzilishi
19. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning tashkiliy shakllari
20. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” faning o‘qitilishi.
21. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursining o‘qitilishi.
22. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Globallashuv asoslari” fanining o‘qitilishi.
23. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Geosiyosat asoslari” faning o‘qitilishi.
24. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ma’naviyatshunoslik” fanining o‘qitilishi.
25. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Etnomadaniyat” fanining o‘qitilishi.
26. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Jahon siyosiy-mafkuraviy ta’limtlar tarixi” fanining o‘qitilishi.
**27.** Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Tarbiya va huquq fanlarini o‘qitish metodikasi” fanining o‘qitilishi.
28. Mutaxassislik fanlaridan o‘quv amaliyotini tashkil etish

29. Mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish metodikasi
30. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida professor-o‘qituvchining vazifalari va talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**V. Kurs ishini tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

“Oliy va professional ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha bajariladigan kurs ishi talabalarda tanlagan mavzusi bo‘yicha adabiyotlarni. ya’ni darsliklar. o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqolalarni izlab topish va ular bilan ishlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu jarayon talabaning ilmiy metodik tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilish tayyorgarligini oshiradi va mustaqil ijodiy ishlari faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, olgan nazariy bilimlarini qo‘llashda amaliy ko‘nikmalar hosil qilish, hamda bevosita pedagogik jarayonda uni qo‘llay olishdan iborat.

Kurs ishi mavzulari bevosita ishlab chiqarish ya’ni, umumumiy o‘rta ta’lim maktablarida pedagogik jarayonga bog‘liq holda ishlab chiqiladi va har bir talabaga alohida shaxsiy topshiriq beriladi

Shuning uchun ham o‘qituvchi kurs ishini taqsimlash va tushuntirish uchun o‘quv rejasida ajratilgan 4 soat ichida kurs ishining mohiyati, tadqiqot olib borish usullari va adabiyotlar bilan ishlash, ya’ni ularda masalaning qo‘yilishi, nima ish qilinganligi, ularning mavjud ishlardan farqi, taklif yoki tavsiya qilinayotgan usullarni ajrata olish haqida batafsil tushuntirish nazarda tutiladi.

Kurs ishi:

- talabada tanlangan mavzu bo‘yicha o‘z nazariy bilimini chuqurlashtirishi:
- psixologik-pedagogik, metodik va o‘quv materiallarini tahlil qilish malakasini o‘zlashtirshi;
- pedagogik eksperimentni rejalashtirishi, tayyorlashi va o‘tkazishi;
- eksperiment natijalariga ishlov berish malakasini egallashi;
- nazariy va eksperiment natijalarini umumlashtirish malakasini egalashga imkon yaratadi.

Kurs ishi talaba tomonidan bajarilgan kichik ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi, shuning uchun ham mavzuning dolzarbligi va bajarilgan ishning sifatiga qarab talabalarning ilmiy anjumanlariga tavsiya etilishi yoki bo‘lg‘usi diplom ishiga asos qilib olishiga maslahat qilinishi mumkin.

Kurs ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va o‘quv yilining boshida shu o‘quv yili uchun tasdiqlanadi. Talaba o‘zini qiziqtirgan mavzuni tanlab olgandan so‘ng, bu mavzu bo‘yicha ish rejasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun kafedraga taqdim etadi. Talabaning tanlagan kurs ishi mavzusi tasdiqlangandan so‘ng kafedra unga ilmiy rahbar tainlaydi. Talaba

| | |
|---|---|
| | kurs ishini o‘z ilmiy rahbarining bevosita rahbarligida bajaradi.<br>**Kurs ishi mavzulari**<br>1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Oliy ta’lim tizimida mutaxassislik fanlarni o‘qitishda o‘tkazilayotgan islohatlar, muammolar.<br>2. “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” ta’lim yo‘nalishi zaruriy mazmuni va bakalavrninig tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar.<br>3. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” faning o‘qitilishidan ko‘zlangan maqsad-vazifalar.<br>4. Pedagogik oliy ta’lim muasasalarida “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursining o‘qitilishining ahamiyati.<br>5. O‘zbekistonda vijdon va e’tiqod erkinligining huquqiy asoslari.<br>6. Jahondagi yetakchi davlatlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari.<br>**7.** Xalqaro ekstremizm va terrorizmga qarshi ma’rifat bilan kurashishni sifat jihatidan yangni bosqichga ko‘tarish borasidagi vazifalar. Sh.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish masalalari.<br>8. Xalqaro ekstremizm va terrorizmga qarshi ma’rifat bilan kurashishda ta’lim tizimi oldidagi vazifalar.<br>**9.** Globallashuvning milliy rivojlanishga o‘tkazayotgan ta’siri va uning oqibatlarini yoritish maslalari.<br>10**.** Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari tahlili.<br>11. Ma’naviyatshunoslikda axloqiy tushuncha va tamoyillarning namoyon bo‘lishi.<br>12. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari.<br>13. Yangilangan milliy o‘z-o‘zini anglash strukturasida etnomadaniy jarayonlar.<br>14. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, metodlari, vositalari, dars va uning turlari va tuzilishi<br>15. Milliy g‘oya targ‘iboti institutsional tizimi, metodlari, vositalari. |
| 3. | **VI. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Magistr bilish kerak:**<br>• mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida professor-o‘qituvchining vazifalari va talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarning diqqatini jalb qilish va mashg‘ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish shakllari (ma’ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta’lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, o‘quv amaliyoti, mutaxassislik fanlarini o‘qitishning multimedia va interfaol ta’lim texnologiyalari to‘g‘risida ***tasavvurga ega bo‘lishi***; **(bilim)**<br>• mutaxassislik fanlarining didaktik ta’minotini ishlab chiqish, mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash, mutaxassislik fanlarining o‘quv- |

| | |
|---|---|
| | uslubiy majmualarini ishlab chiqish, mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida reyting tizimini qo‘llash, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda mashg‘ulotlarning rejasini tuzish va ma’ruza matnini tayyorlash; ochiq mashg‘ulotlarni o‘tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, yil, semestr bo‘yicha o‘quv ishlarining tashkil etilishini rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish, o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo‘llash kabi ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)***.<br>• mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi fanining vazifalari, o‘qitish qonuniyatlari va tamoyillarining nazariy asoslari, mutaxassislik fanlari ta’lim mazmunini tanlash mezonlari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish metod va vositalarining ilmiy asoslari, mutaxassislik fanlarini o‘qitishning axborot texnologiyalari, mutaxassislik fanlarini o‘qitishning tashkiliy shakllari, mutaxassislik fanlarini o‘qitish texnologiyalarining pedagogik asoslari, mutaxassislik fanlaridan o‘quv amaliyotini tashkil etish, o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini meyorlashtirish va tashkil etish, mutaxassislik fan o‘qituvchisining o‘quv meyoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (malaka).*** |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliy nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha topshiriqlarni bajarish |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar:**<br>1. O‘.Q. Tolipov, D.I.Ro‘zieva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat (barcha magistratura mutaxassisliklari uchun o‘quv qo‘llanma). Toshkent, 2019<br>2. Tohirov A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.<br>3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya, 2011.<br>4. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. “Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish. – T.:TDPU, 2013<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:** |

| | |
|---|---|
| | 1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2021. – 464 b.<br>4. Mirziyoyev Sh.M Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2019. – 400 b.<br>5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2023.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2016.<br>7. Qurbonov J.A. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Namangan, Usmon Nosir media. 2023.<br>8. Sobirova M, Zamonov Z, Niyozmatov A, Xo‘jayev M. Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti. –2022 yil.<br>9. Baratbayev B. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (O’quv qo’llanma) “Farg’ona” nashriyoti, 2020 yil<br>10. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2002 yil.<br>**Axborot manbalari:**<br>1. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.<br>2. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.<br>3. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.<br>4. www.pedagog.uz<br>5. www.apkpro.ru/content/view<br>6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten<br>**7.** www.relarn.ru/conf/conf2007 |
| 7. | **Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>Z.Xamraqulov – Qo`qon DU, Milliy g’oya va huquq asoslari kafedrasi dotsenti. |
| 9. | **Taqrizchi:**<br>Mamatov. M.A. – FarDU professori, falsafa fanlari doktori (DSc)<br>M.Karimov – Qo’qon shahar 25-maktab direktori. |